



G'O'ZANING *G.HIRSUTUM* L *TURIGA* MANSUB F₄ DURAGAYLARIDA SUV TANQISLIGI SHAROITIDA CHIGIT TARKIBINI ANIQLASH.

Matyakubova Gulnoza Arapbayevna ¹

Madartov Baxrom Kuvandikovich ²

Mavlonova Nasiba Umarovna ²

¹ Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti, tayanch doktorant.

² Toshkent davlat agrar universiteti, dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15572064>

Jahonda global iqlim o'zgarishi jumladan qurg'oqchilikning qishloq xo'jaligiga salbiy ta'siri kuchayib borayotgani tufayli g'o'zaning genetik, fiziologik-biokimyoviy va qimmatli-xo'jalik ko'rsatkichlarini tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [1;2.]. Bugungi kunda yetishtirilayotgan g'o'za navlari tola sifati hosildorligi yuqori bo'lishi bilan bir qatorda chigit tarkibidagi oqsil, yog' miqdori yuqori bo'lishi ham muhim hisoblanadi. Paxta xom ashyosidan biri hisoblangan chigit foydalanish maqsadlariga ko'ra ikkiga, urug'lik va sanoatda qayta ishlanadigan texnik chigitlarga bo'linadi. Chigit tarkibini o'rganish sanoat uchun muhim hisoblanadi. Chunki chigitdan yog' va chorva mollari uchun to'yimli yem-xashak va boshqa xo'jalik maqsadlarida foydalaniladigan mahsulotlar olish mumkin [3.]. Chigit mag'zi tarkibida 24 dan 29 % ga qadar moy bor. O'zbekiston yog'moy sanoati korxonalarida har yili 1,5— 2 million t texnik chigit qayta ishlanib paxta yog'i, shulxa (chigit po'chog'i), kunjara olinadi. Chigit chiqindilarini qayta ishlab, ulardan sellyuloza, spirt, lok va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi [5.].

Biz tadqiqotlarimizda g'o'zaning *G.hirsutum* L turiga mansub F₄ duragaylarida suv tanqisligi sharoitida chigit tarkibidagi oqsil, yog' va namlik miqdorini SupNir-2750 urug' tarkibini aniqlovchi analizatoridan foydalanib aniqladik. SupNir-2750-analizatori InGaAs yorug'lik detektoridan foydalanadi, bu esa tahlilning yuqori aniqligini ta'minlaydi va qurilmaning kengaytirilgan spektrli diapazoni 1% dan kam xatolik bilan urug'larni o'lchashga moslashtirilgan. Chigit tarkibini SupNir-2750-analizatorida aniqlashdan oldin, nav va duragay urug'larini FOCT 21820.2-76 [4; 107-108-b.] bo'yicha H₂SO₄ – sulfat kislota kuydirib tuksizlantirib oldik. Tuksizlantirilgan chigitlarni xona haroratida to'rt kun davomida quritib oldik. Tahlil uchun 100 gramm og'irlikdan kam bo'lmagan chigit namunalarini torozida tortib oldik va sinov tahlilini o'tkazdik. Chigitlar tarkibidagi oqsil miqdorini aniqlash natijasida ma'lum






bo'ldiki, ota-ona va duragay kombinatsiyalar chigitlari tarkibidagi oqsil miqdori 15,03% dan 19,47% gacha bo'lgan oraliqni tashkil etdi. Bunga ko'ra, tajribada andoza sifatida ishtirok etgan C-6524 navida oqsil miqdori 15,03% ni tshkil etgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich-19,47 % F_4 Sulton x Catamarca 811 urug'larida kuzatildi. Chigitlar tarkibidagi moy miqdori bo'yicha esa 13,98-19,14% oraliqdagi qiymatlar kuzatildi. Bunga ko'ra, tarkibidagi yog' miqdorining pastligi bo'yicha F_4 Nam-77 x Hapicala-19 (13,98%) ajratilgan bo'lsa, 19,14% yuqori ko'rsatkich bilan F_4 C-6580 x Acala-40 duragay kombinatsiyasi tanlab olindi (jadval).

Jadval

G'o'zaning *G.hirsutum* L turiga mansub F_4 duragaylarida suv tanqisligi sharoitidagi chigit tarkibi

T/r	Nav va duragaylar nomi	Oqsil, %	Yog', %
1	S-6524 (andoza nav)	15,03	14,70
2	Sulton	16,18	15,35
3	C-6580	17,05	16,43
4	Namangan-77	18,27	16,80
5	Saenr-Pena-85	17,33	14,95
6	Acala-40	15,45	18,0
7	Hapicala-19	16,08	15,70
8	Catamarca 811	16,03	14,70
9	Sulton x Saenr Pena-85	15,24	13,63
10	Sulton x Acala-40	17,31	16,15
11	Sulton x Hapicala-19	18,02	16,34
12	Sulton x Catamarca 811	19,47	14,90
13	C-6580 x Saenr Pena-85	19,34	18,25
14	C-6580 x Acala-40	17,03	19,14
15	C-6580x Hapicala-19	18,03	16,70
16	C-6580 x Catamarca 811	15,41	14,63
17	Nam-77 x Saenr Pena-85	17,07	15,13
18	Nam-77 x Acala-40	17,22	14,90
19	Nam-77 x Hapicala-19	16,42	13,98
20	Nam-77 x Catamarca 811	18,34	17,01





Jadval ma'lumotlariga ko'ra, duragay va ota-ona chigilarit tarkibida yo'g' miqdorining pasayishi oqsil miqdorining oshishiga sabab bo'lgan. Agrotexnik tadbirlar to'g'ri olib borilganda chigit tarkibidagi moy miqdori 24-26 % gacha bo'lishi manbalardan ma'lum [5.]. Tajribada sug'orish 1:0:0 sxemada olib borilganda chigitlarning moy miqdori pasayishi kuzatilgan.

Demak, olib borilgan tajriba natijalari asosida xulosa qiladigan bo'lsak, suv tanqisligining o'simliklarda hosildorlik va qimmatli xo'jalik belgilariga salbiy ta'siri bilan bir qatorda chigit tarkibiga ham ta'siri yuqori ekanligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xamdullayev Sh.A., Nabiyeu S.M., Shavqiyev J.Sh. Turli suv rejimi sharoitlarida g'o'za genotiplari barglaridagi umumiy suv miqdori belgisining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 11 | 2022.
2. Холлиев А.Э. Курфоқчилик ва ғўзанинг ҳимоявий мослашиш хусусиятлари // Ўзб. биол. жур., 2009.-№3, –Б. 14-17.
3. Mamedova F.F., G'o'zaning rangli tolali namunalaridan foydalangan holda tola sifati yuqori bo'lgan seleksion ashyo yaratish. Diss.avtoreferati. Toshkent. 2024. B.-20.
4. ГОСТ 21820.2-76
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Chigit>

